

**YOSH AVLOD MA’NAVIY TARBIYASIDA ABDULLA AVLONIY
MEROSINING O’RNI**

Temurbek Murodullayev

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix
fakulteti 1 –bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshidagi o‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma’rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy ma’naviy va ma’rifiy merosining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni masalasi atroflisha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, jadidchilik, amaliy ma’rifatchilik, ma’rifatparvar adib, Abdulla Avloniy, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Turkiy Guliston yoxud axloq”, milliy uyg‘onish g‘oyalari.

**РОЛЬ НАСЛЕДИЯ АБДУЛЛЫ АВЛОНИ В ДУХОВНОМ
ВОСПИТАНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ**

Темурбек Муродуллаев

*Студент 1 курса исторического
факультета ТГПУ им. Низами*

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрен вопрос о роли духовно-просветительского наследия одного из выдающихся представителей узбекской национальной культуры конца XIX-начала XX веков – поэта, драматурга, журналиста, ученого, государственного и общественного деятеля Абдуллы Авлони в воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: образование-воспитание, джадидизм, практическое просвещение, просвещенный писатель, Абдулла Авлони, “Первый учитель”, “Второй учитель”, “Тюркский Гулистан или этика”, идеи национального возрождения.

THE ROLE OF ABDULLAH AVLONI'S LEGACY IN THE SPIRITUAL EDUCATION OF THE YOUNGER GENERATION

Temurbek Murodullayev

1st year student of the Faculty of History of TSPU named after Nizami

Abstract: This article examines in detail the role of the spiritual and educational heritage of one of the outstanding representatives of the Uzbek national culture of the late XIX-early XX centuries - poet, playwright, journalist, scientist, statesman and public figure Abdullah Avloni in the education of the younger generation.

Key words: education-upbringing, jadidism, practical enlightenment, enlightened writer, Abdullah Avloni, “First teacher”, “Second teacher”, “Turkic Gulistan or ethics”, ideas of national revival.

XIX asr oxiri XX asr boshidagi o‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma’rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniydir.

Avloniyning mualliflik faoliyati, ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari jadidchilikning muhim qanoti amaliy ma’rifatchilikning yo‘nalish va xususiyatlarini belgilashga yordam bersa, she’rlari XX asr o‘zbek milliy she’riyatining maydonga kelishi va tarixiy takomilini tayin etishda qimmatli materiallar beradi.

Ma’rifatchilik va ijtimoiy mavzu Avloniy ijodida markaziy o‘rin egallaydi. Ma’rifatparvar adib ilm-fanning fazilatlarini har tomonlama oolib berishga harakat qiladi. “Maktab”, “maorif”, “ilm”, “fan” kabi tushunchalar adib merosida ezgulik va taraqqiyotning betimsol ramzi, obrazi darajasiga ko‘tarilgan, “jaholat” va “nodonlik” esa zulmat yovuzlik timsoli sifatida talqin qilinadi.

Abdulla Avloniyning milliy ma’naviyatimiz va madaniyatimiz tarixidagi o‘rni haqida gap ketganda, ikki jihatini alohida ta’kidlash zarur: pedagogik faoliyati va adabiy badiiy ijodi. Uning pedagogik faoliyati, ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari XX asrning boshlarida yangi bosqichga ko‘tarilgan ma’rifatparvarlikning xususiyatlarini belgilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ayniqsa Abdulla Avloniy shaxsan o‘zining say-harakatlari bilan tashkil etgan maktabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan bo‘lib, u dunyoviy va ilg‘or ilm-fanni bolalarga o‘rgatishni o‘z oldiga asosiy vazifa qilib qo‘yan edi. Manbalarning guvohlik berishicha, bu maktab yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo‘lishini ta’minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo‘ldi. Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzdi. Uning avvalgi sinf shogirdlari uchun “Birinchi muallim”i (1911) Oktabr o‘zgarishigacha 4 marta, “Alifbedan so‘nggi o‘quv kitobi” – “Ikkinchi muallim” (1912) 3 marta qayta nashr etilgan.

Axloqiy didaktik mazmundagi “Turkiy Guliston yoxud axloq” darsligi (1913) XX asr boshlari ijtimoiypedagogik fikr taraqqiyotida alohida o‘rin egalladi. Unda tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Avloniy xulqlarni an’anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristotel, Sa’diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Adib Vatan muhabbatini uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan hisobladi. “Vatan. Har bir kishining tug‘ulub o‘skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ulgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq suyar”(1). Shoир xalqni, ayniqsa yoshlarni ona Vatanni qadrlamoqqa, sevmoqva, yashartmoqva va

ko‘z qorachig‘idek asramoqqa chaqiradi. U Vatan va unga muhabbat deganda shuni tushungan edi.

Shuningdek, shoirning ona tiliga muhabbat o‘zgacha edi. U tilga, madaniyatga muhabbatni har bir kishining o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbat deb qaraydi va tilni yo‘qotishni eng katta fojea deb qaraydi. Avloniyning “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur . Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur. Hayhot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun kundan-kun unutmak va yo‘qotmaqdadurmiz. Tilimizning yarmiga arabiyl, forsiy ulangani kamlik qilub, bir chetiga rus tilini ham yopishdurmakkadurmiz”(2) – degan bitiklari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Hozirda ham o‘z ona tilini chetga qo‘yib, o‘zga tilni himoya qilayotganlarga qamchi sifatida qo‘llanilayotgandek go‘yo.

Uning ijodi g‘oyaviy kurashlar g‘oyat keskinlashgan davrga to‘g‘ri kelishiga qaramasdan ma’rifat va taraqqiyot uchun kurashishini o‘ziga asosiy maqsad qilgan. Bu yo‘lda Vatanga, o‘z xalqiga, uning tiliga, madaniyatiga muhabbatni va uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulq hisoblagan Ayniqsa tilning mavqeini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratgan.

Avloniy insonlarni xalq tilining tiganmas manbalaridan keng foydalanishga, uning boyligini yanada o‘stirishga, uni qadrlashga chaqiradi. Bu da’vat bugungi kun yoshlari tarbiyasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak ma’rifatparvar shoirning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarini qancha o‘qib o‘rgansak, tahlil va tadqiq etsak shuncha oz.

Avloniyning ma’rifatparvarlik va milliy uyg‘onish g‘oyalari kuylagan dastlabki she’rlari o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotining hamisha beba ho mulki bo‘lib keldi. U bu turkumga mansub she’rlarida o‘zbek mumtoz adabiyotidagi she’riy shakllarni katta ijtimoiy mazmun, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, hajviy ruh va xalqona ohanglar bilan boyitdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida

ta’kidlaganidek, 20 asr boshlarida “Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar milliy uyg‘onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul mакtablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrлar tashkil etdilar.

Ming afsuski, jadid bobolarimiz o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo‘l bermadi. Ma’rifat fidoyilar o’sha davrning turli johil kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo‘ldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg‘in va qatag‘on qildi. Shu tariqa milliy uyg‘onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo‘lib qoldi”(1).

Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashda, ularga ma’rifatparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini singdirishda Abdulla Avloniyning boy ma’naviy-ma’rifiy merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ma’rifatparvar adib o‘z vaqtida millat kelajagi bo‘lgan yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, ularning ma’naviya-axloqiy qiyofasini umuminsoniy qadriyatlarga mos qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratgan edi. Uning ta’kidlashicha, inson yoshligidan boshlab yaxshi tarbiya topib, yuksak ma’naviy fazilatlarga ega bo‘lib, buzuq xulqlardan saqlanib o’sgan bo‘lsa, baxtiyor va osuda hayot kechiradi, o‘ziga, oilasiga, jamoasi, xalqi, millat va Vataniga behad katta naf keltiradi. Bu fikrlar ayni paytda har birimiz uchun dasturil amal bo‘lib xizmat qilmog‘i zarur.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Ўқитувчи ва мураббийлар янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суюнчимиздир /Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 1-октябр – Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишиланган тантанали маросимдаги нутқи// Халқ сўзи, 2020 йил 1 октябрь, 207 (7709).
2. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўқитувчи, 1992, 28-бет.